
HOKIM YORDAMCHISI TASIYASI BILAN TIKUVCHI AYOLGA SUBSIDIYA ASOSIDA TIKUV MASHINKASI OLIB BERILDI



Hokim yordamchisi tasiyasi bilan tikuvchi ayolga subsidiya asosida tikuv mashinkasi olib berildi

Aholi, ayniqsa ayollar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash kunning ustuvor masalalaridandir. Zotan, bu bilan fuqarolarimiz daromad manbaiga ham ega bo'ladilar.

So'x tumanidagi Devayron mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Gulxanjon Mamajonovning tavsiyasi bilan mahalladagi chevar ayol Muhabbat Yo'lchiyevaga faoliyatini kengaytirish maqsadida subsidiya asosida yangi zamonaviy tikuv mashinkasi yetkazib berildi.

Chevar ayol muhabbatxon Yo'lchiyeva hozirgi kunda mahalladagi ishsiz, chevarchilikka qiziqqan 2 nafar yoshlarni va o'z farzandlarini yoniga shogird qilib olish niyatida. Albatta, shogirdlar ham katta qiziqish bilan ushbu hunarni o'rganishlariga ishonamiz. Zotan, oramizda turli kasblarga qiziqadigan yoshlar ko'pgina topiladi.

Devayron mahallasi hokim yordamchisi ma'lumotiga ko'ra, bunday fuqarolar yoshlar orsidan ham tanlab olingan. Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida yoshlarga turli asbob va dastgohlar olib berish bo'yicha kerakli hujjatlar rasmiylashtirilgani ham ma'lum bo'ldi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-01-13 15:24:42